

YOSHLAR
OVOZI

BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!

#29 (16683)
2025-yil 23-iyul,
chorshanba



Foto: Xolida MUSULMON

Bu yil test sinovlarida ishtirok etish uchun jami 671 397 nafar abituriyent ro'yxatdan o'tgan. Ma'lumot berilishicha, 486 196 nafar abituriyent imtihonlarda ishtirok etish uchun belgilangan to'lovdan ozod etilgan. Ro'yxatdan o'tgan abituriyentlarning 361 019 nafari (53,8%)ni xotin-qizlar, 310 378 nafari (46,2%)ni esa erkaklar tashkil etadi. Ro'yxatdan o'tish jarayonida abituriyentlar yuklagan xalqaro til sertifikatlari ham tekshirildi. Natijada 18 854 dona sertifikat haqiqiy deb topildi. Shu bilan birga, 3 370 ta sertifikat turi yoki darajasi talabga mos kelmasligi, muddati o'tganligi yoki soxtaligi tufayli rad etildi. Aytish joizki, test sinovlarini sifali va shaffof tarzda o'tkazish maqsadida bu yil binolar optimallashtirilib, 65 ta yopiq turdagi katta sig'imli bino tayyorlandi. Binolarda bir smenada 1 169 ta guruhda 35 070 nafar, bir kunda — ikki smenada 70 140 nafar abituriyent test topshiradi. Test sinovlari 10 kun davomida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

MAHALLAGA

mehr

3-bet

BILAN



MO'G'OL
MAHALLASIDAGI
EZGU
SA'Y-HARAKATLAR

Namangan viloyatining Yangi-qo'rg'on tumanidagi Mo'g'ol mahallasi qardosh millat vakillari bir oiladek yashayotgan so'lim maskanlardan biri. Ayniqsa, bu mahallada o'zbek va qirg'iz xalqlari o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamkorlik va mehr-oqibat barchaga ibrat bo'ladi. Hududda yoshlar bilan ishlash bo'yicha e'tiborga loyiq faoliyat olib borayotgan, tizimning yoshlarga mehr va g'amxo'rligi timsoliga aylangan Xursandoy Jumanazarova 2022-yildan buyon yoshlar yetakchisi sifatida ishlamoqda.

TEST SINOVLARI DAVOM ETMOQDA



Xorazm YOSHLARINING YANGI DAVRI

2-bet

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi islohotlar yosh avlodni jamiyatning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirmoqda. Ayniqsa, Xorazmda yoshlar bandlegini ta'minlash, kasb-hunar o'rgatish, tadbirkorlikka jalb etish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar natijalari bunga misol bo'la oladi. Yoshlar bilan ishlashda "Yoshlar balansi" elektron platformasi asosiy yo'lko'rsatkich bo'lmoqda. Platformaga Xorazm viloyatidan 534 mingdan ziyod yosh kiritilgan. Ular holatidan kelib chiqib "yashil" (367 398 nafar), "sariq" (159 904 nafar) va "qizil" (14 708 nafar) toifalarga ajratildi. Xatlovda 10 068 nafar ishsiz yosh aniqlanib, ular bilan individual ishlash maqsadida 424 nafar rahbarga nomma-nom birlashtirildi. Uchrashuvlarda yoshlarning muammolari o'rganilib, har biri uchun "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Natijada 2025-yil iyul holatiga ko'ra 5 906 nafar yoshga manzilli ko'mak ko'rsatildi.

O'ZBEK TILI VA

SI

4-bet

SUN'IY IDROK
TEKNOLOGIYALARI MILLIY
TILIMIZNI BUZISHGA
INTILYAPTIMI?

80-yillardan bu yong'iga sun'iy intellekt, robotlarning insoniyatga qarshi bosh ko'tarishi, xavflari haqida filmlar ishlanadi, turli farazlar ilgari suriladi. Kinolarda sun'iy intellekt odamga jismoniy zarar yetkazishi, o'ldirishi, xavsizlik, bank-moliya, energetika tizimlariga hujum qilishi aks etadi. Aslida real hayotimizda ham bunday tahdidlar kuzatilmoqda. Masalan, inson aqliy faoliyatiga, savodiga, tiliga ta'sir qilish allaqachon boshlangan.



Vaziyatni to'liqroq anglash uchun sun'iy idrok texnologiyalarining salbiy ta'siriga eng ko'p duch kelayotgan ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'zbek tili mutaxassislari yuzlandik. Denov tumanidagi maktab o'qituvchisi Qunduzoy Xurramova shunday deydi: — Yaqinda bir o'quvchim Telegram guruhimizda qaysidir masalada yozib qoldi. O'z ismini yozmagan — qanaqadir taxallus. Tanimaganim uchun ism-familiyasini so'radim. "Ustoz, men odamman, ismim nima emas, kim", deb qolsa bo'ladimi. Avval hayron bo'ldim, keyin ismga nisabatan nima so'rog'i ishlatilishini aytdim. Baribir o'z bilganida turib oldi, batafsilroq, misollar bilan tushuntirdim yana. Yo'q, bo'lmadi. Keyin "Mana, ChatGPT aytyapti, kim deyish to'g'ri ekan", deb sun'iy intellektidan so'raganini tashladi. Jahlim chiqdi, xafa ham bo'ldim. Lekin shunda ham o'zbek tili bo'yicha internetda manbalar kamligi, tizimimiz korpusi yaratilmaganini, shuning uchun sun'iy intellekt o'zbek tilini yaxshi bilmasligini aytdim. Lekin ularni o'smirning ongiga singdirish juda qiyin edi... Shu savol bilan o'zim ham ChatGPTga murojaat qildim. Menda to'g'ri chiqardi. Nima uchun o'quvchimda bunday bo'lganini so'raganimda ChatGPT ba'zida substandartlarni me'yor sifatida qabul qilishini, bu foydalanuvchiga bog'liq ekanini aytdi. Ha, rostdan ham sun'iy intellekt o'zbek tili manbalari yetarli emas, lekin qanday foydalanish, rivojlanish jarayonida to'g'ri yo'nalish ko'rsata olish ham muhim ekan.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi Akbarali Boymirzayevning fikricha, til masalasida filolog talabalarning sun'iy intellektga suyanib qolayotgani juda yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin: — Talabani erinchoq, tafakkurini to'mtoq qilib qo'yyapti sun'iy intellekt. Talabalar undan to'g'ri va o'rinda foydalanishi kerak. O'zim ham foydalanaman. Lekin ilmiylikni, ma'lumot olishni sun'iy intellektga yuklab bo'lmaydi. Ayni o'zbek tili sohasida shunday. Sun'iy idrok bilan seminar darslarida taqdimot qilib kelishadi, mustaqil ta'lim ishlari bajarishadi. O'ta jo'n, oddiy bir ma'lumot atrofida arava quruq olib qochiladi. Ilmiylikdan darak yo'q. Umuman mavjud bo'lmagan nazariya, qoidalar... Til uslubi, so'z boyligi haqida-ku gapirmasa ham bo'ladi. Sal ilmi, fahmi bor odam bir qarashda bunday matnни ajratib ololadi. Til masalasida ustun bo'lishi kerak bo'lgan filolog talabalar sun'iy intellektga tayanib qolgani juda yomon kutilmalardan darak, aslida. Har safar takrorlaymiz: o'zbek tili masalasida sun'iy intellekt ojizlik qiladi, internetda bizning til bazamiz yetarli emas, lug'atlarimiz yo'q. Ertaga shu kamchiliklarni to'g'rilashi, vaziyatni yaxshilashi kerak bo'lgan talabalar yoshlarimiz Sining izmiga tushayotgani jiddiy xavotirga solishi kerak bizni. Ayniqsa, oxirgi bir yilda bu salbiy tendensiya juda tez rivojlanayapti. Yanvar oyida ham "Tilimizning ichki imkoniyatlari pasaymoqda" nomli maqolaga orqali sun'iy intellektning o'zbek tiliga ta'siri haqida fikr yuritib, takliflar bergan edik. Oradan yarim yil vaqt o'tdi, ammo shu qisqa fursatda SI yaratgan o'zbekcha matnlar shu darajada ko'paydiki, endi Sining yozish uslubi odamlarga namuna bo'lib xizmat qilishni boshladi. Kishilar biror nima yozganda sun'iy intellekt kabi yozib, u ishlatgan qoliplardan, keraksiz tinish belgilaridan foydalanayapti.



DOLZARB 90 KUN

RESPUBLIKA ISHCHI
GURUHI MUAMMOLARNI
O'RGANYAPTI

2-bet

Hududlarda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha Respublika ishchi guruhi o'z faoliyatini Sirdaryo viloyatida davom ettirdi. O'rganish doirasida viloyatda yoshlar bilan ishlash holati, mavjud muammolar va ularni hal etish mexanizmlari chuqur tahlil qilindi.



Yorug'lik

IFLOSLANISHI yoxud TUNGA HAM DAM BERAYLIK

4-bet

Tunda osmonga boqqanmimiz? Yulduzlar miltillab turgan samoda sokinlik, sirli go'zallik va abadiy hayrat yashirgan. Ammo bugun bu manzara tobora xira tortayotgandek. Global miqyosda aholi punktlarining 80 foizdan ortig'ida tungi tabiiy qorong'ilik yo'q, shahar aholisi esa yulduzlarni tomosha qilish zavqidan tobora mahrum bo'lib bormoqda. Dunyoda tungi yorug'lik maydoni so'nggi o'n yillikda 49 foizga oshib,

sun'iy yoritilgan hududlar 1992-yildan beri uch baravar ko'paygan. Natijada qushlar yo'ldan adashmoqda, odamlar uyqudan, sog'lig'idan ayrilmoqda, sayyoramiz tabiiy ritmini yo'qotmoqda. Yorug'lik ifloslanishi ko'zga ko'rinmas, lekin global muammo: iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, atmosferada issiqlikni ushlab qolish jarayonini kuchaytiradi. Xo'sh, yorug'lik ifloslanishi nima o'zi? Jahonda bu muammoga yechim qidirilmoqdami? O'zbekistonda-chi?



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Xorazm

YOSHLARINING YANGI DAVRI

HUQUQBUZARLIKNING OLDINI OLISHDA OTALIQ TIZIMI

4 640 nafar yosh huquqni muhofaza qiluvchi va mudofaa organlarining 339 nafar ofiteriga otaliqqa birlashtirildi. Ular yoshlar bilan profilaktik va tarbiyaviy ruhdagi ishlarni yo'lga qo'ygan. Nazoratdagi yoshning 560 nafari ish bilan ta'minlandi.

2025-yilda bosh rejaga ko'ra, viloyatda 17 mingdan ziyod yoshni ishga joylashtirish, kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka yo'naltirish rejalangan. 1-iyul holatiga 9 486 nafari ishli bo'ldi. 4,4 ming nafari doimiy ish o'rinlariga qabul qilindi, 3 mingdan ziyodiga 48,6 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. 1,5 ming yosh zamonaviy kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rgandi.

“Milliy bank” va “Aloqabank” yosh tadbirkorlarga 87 milliard so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratib, 1 407 nafar yoshning bandligini ta'minlashga hissa qo'shdi. Mablag'lar asosan asalarichilik, tikuvchilik, qandolatchilik, xizmat ko'rsatish, mebelchilik yo'nalishlarida yangi ish o'rinlarini yaratishga sarflandi.

YANGI BOSQICHDAGI IMKONIYATLAR

Muhtaram Prezidentimiz shu yil 1-2-may kunlari Xorazmga tashrifi chog'ida yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazib, muammolari va orzu-intilishlarini tingladi. Uchrashuvda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun “Aloqabank”, “Milliy bank” hamda Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jam'ar-masi orqali 100 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilishi e'tirof etildi.

Urganch shahridagi Al-Xorazmiy massivi, Tuproqqal'a va Shovot tumanlarida zamonaviy Yoshlar markazlari qurildi. Markazlarda “Ibrat farzandlari”, “Mutolaa”, “Ustoz Al”, “UzChess”, “Qizlar akademiyasi” kabi loyihalar orqali yoshlar bilimi, salohiyati va ijtimoiy faolligi yanada oshirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 209-sonli qaroriga asosan xalqaro imtihon tizimlaridan yuqori ball olgan yoshlarning xarajatlarini to'liq qoplab berilmoqda. O'tgan davrda shu maqsadda 2 234 yoshga 4 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilgan bo'lsa, bu yilning o'zida 383 nafar yoshga 774 million so'mlik kompensatsiya to'lab berilgan.

Temur JUMANIYAZOV,

Xorazm viloyati
yoshlar ishlari
boshqarmasi boshlig'i

ISTIQBOLLI REJALAR

Biz yoshlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha istiqboldagi rejalarni ishlab chiqdik.

“Yoshlar balansi”. 2025-yil oxirigacha viloyatdagi barcha yoshlar “Yoshlar balansi” elektron tizimiga to'liq kiritiladi. “Qizil” va “sariq” toifalarga mansub yoshlar bilan individual ishlarni kuchaytirish hisobiga ularning kamida 80 foizi “yashil” toifaga o'tkaziladi.

Bandlik. “O'zini o'zi band qilish” tizimini kengaytirish orqali 2026-yilgacha kamida yana 5 ming nafar yoshga barqaror daromad manbayi yaratish ko'zda tutilgan. “Yoshlar – startap” dasturini ishga tushirish, innovatsion g'oyalarga ega yoshlar uchun maxsus grantlar ajratish, “Asalarichilik”, “Yilning yosh hunarmandi” va “Yosh fermer” kabi yo'nalishlar bo'yicha sektorli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytiriladi.

Kasb-hunar va chet tili. 2025-2026-yillarda 3 mingdan ziyod yosh zamonaviy kasblar va raqamli texnologiyalarga o'qitiladi. Har bir yoshga kamida bitta ijtimoiy mentor birlashtiriladi. Profilaktik va tarbiyaviy markazlar ochilib, “og'ish nuqtasi”dagi yoshlarga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Ijtimoiy moslashuv. Yoshlarni huquqbuzarlikdan saqlash maqsadida otaliqqa birlashtirish tizimi yanada takomillashtiriladi. Har bir yoshga kamida bitta ijtimoiy mentor birlashtiriladi. Profilaktik va tarbiyaviy markazlar ochilib, “og'ish nuqtasi”dagi yoshlarga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Mahallabay yondashuv. Mahalla kesimida yoshlar bandligi, ta'limi va ijtimoiy faolligi bo'yicha “Yoshlar pasporti” joriy etiladi. Yoshlar yetakchilari, mahalla raislari va sektor rahbarlari ishtirokida tizimli monitoring va tahlil olib boriladi.

Davlatimiz yoshlarning kelajakka ishonchini mustahkamlash yo'lida juda katta ishlarni bajarayapti. Biz yosh avlodning orzu va intilishlarini qadrlaymiz. Hayotda o'z yo'lini topishi, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishi uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda.

DOLZARB 90 KUN

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

RESPUBLIKA ISHCHI GURUHI MUAMMOLARNI O'RGANYAPTI



Sirdaryo viloyati hokimligida yoshlar masalalari bilan ishlovchi mas'ul tashkilotlar rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda yoshlar bandligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish hamda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Yig'ilishda viloyat va tuman (shahar) rahbarlarining yoshlar bandligini ta'minlashdagi faolligi tanqidiy ruhdan o'ziga ega bo'ldi. Bu borada sustkashlikka yo'l qo'ygan mas'ullarga nisbatan tegishli choralar ko'rilishi zarurligi alohida qayd etildi. Mahalla raislari, yoshlar yetakchilari va hokim yordamchilari tomonidan ta'lim muassasalari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, bu orqali o'quvchi-yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilish yakunida Sirdaryo viloyatini yoshlar ishsizligidan xoli hududga aylantirish, har bir yigit-qizni daromadli mehnat bilan band qilish bo'yicha aniq dastur ishlab chiqish zarurligi bildirildi. Tashrif davomida Mahallalarda yoshlar bilan ishlash komissiyasi raisi Qahramon Quronboyev chet tillarni o'rganayotgan, yer maydonlaridan daromad topayotgan yoshlar bilan bevosita uchrashib, ularning faoliyatini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar berdi. Joylarda yoshlarga ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish holati, ularning daromad manbalarini ko'paytirish, hamda faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha uchrashuv va tahliliy suhbatlar o'tkazildi.

Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Dilnoza Kattaxonova Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumani Do'ngariq mahallasida joylashgan “Ibrat farzandlari” o'quv markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mazkur markazda 100 nafarga yaqin o'quvchi ingliz, rus, koreys va nemis tillarini chuqur o'rganmoqda. Shuningdek, Prezidentimizning 2024-yil 12-iyundagi PQ-153-son qarori asosida yoshlarga ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish holati ham o'rganildi. Yangi O'zbekiston mahallasida 78 nafar yoshga birlashtirilgan 1,5 gektar yer maydonida qovun yetishtirib, daromad olayotgan yoshlar – Furqat Jumanazarov, Doniyor Jumanazarov va Javohir To'ychievlar faoliyati bilan yaqindan tanishildi. Ularining tashabbuskorligi, mehnatga ishtiyoqi va oilaviy daromadni mustahkamlashdagi sa'y-harakatlari yuqori baholandi.

Muzrabot tumanidagi Bog'iston mahallasi yoshlar yetakchisining faoliyati ham o'rganildi. Mavjud muammolar yuzasidan shu joyni o'zida tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

– Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Dilnoza Kattaxonova bilan uchrashuv juda samarali bo'ldi, – deydi Muzrabot tumanidagi Bog'iston mahallasi yoshlar yetakchisi Nodirbek Shamshiyev. – Suhbatda mahallamizda yoshlarga oid davlat siyosatining targ'iboti, “Dolzarb 90 kun” doirasida o'tkazilayotgan tadbirlarda yoshlar ishtiroki yuzasidan fikr almashdik. Faoliyatimni yanada samarali tashkil etish, yoshlarni loyiha va tadbirlarga keng jalb qilish bo'yicha qimmatli tavsiyalar oldim.

Ishchi guruhning navbatdagi manzili Samarqand viloyati bo'ldi. Bu galgi o'rganishlarda tahliliy yig'ilishlar, joylarda yoshlar bilan ochiq muloqotlar tashkil etildi. Hududlarda “Dolzarb 90 kun” doirasidagi loyihalar qanday tashkil etilayotgani, yoshlarning qamrovi darajasi ham o'rganildi. Samarqand shahridagi Xalqaro turizm universitetida Yoshlar ishlari agentligi mutasaddilari yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Uchrashuvda talaba yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollar, tashabbuslar va muammolar bilan yuzma-yuz murojaat qildi.

HAR BIR YIGIT-QIZNI DAROMADLI MEHNAT BILAN BAND QILISH BO'YICHA ANIQ DASTUR ISHLAB CHIQISH ZARURLIGI BILDIRILDI.

Yoshlar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash markazi

8 YO'NALISHDA TO'GARAKLAR ISHLAYAPTI

Yozgi ta'til yoshlar uchun dam olish, qiziqishlari, salohiyati va iste'dodlarini yuzaga chiqarish davri hisoblanadi. Prezidentimiz rahbarligida 2025-yil

15-may kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini oshirish bilan birga, yozgi ta'til davrida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi-ga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda maktablarda kunduzgi oromgohlar, fan, sport va kasb-hunar to'garaklarini tashkil etish, teatr, madaniyat markazlari, sport maydonlari, oromgoh va turizm obyektlaridan to'liq foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Ana shu topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 1-iyunidan 30-avgustiga qadar mamlakat bo'ylab “Dolzarb 90 kun” loyihasiga start berildi.

Chust tumanidagi Tinchlik mahallasida ham “Dolzarb 90 kun” tashabbusi doirasida aniq va tizimli ishlar boshlangan. 12-maktabda yozgi kunduzgi oromgoh faoliyati yo'lga qo'yilib, 8 ta yo'nalishda to'garaklar tashkil etildi. Ular orasida sport, rassomchilik, shaxmat-shahka, musiqa, kitobxonlik va kompyuter savodxonligi kabi mashg'ulotlar bor.

– “Dolzarb 90 kun” loyihasi biz, pedagoglar uchun katta imkoniyat bo'ldi, – deydi maktab direktori Shoira Fayzullayeva. – O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmun-

li o'tkazish, ularni ijtimoiy muhitdan uzilmagan holda rivojlantirish – asosiy vazifamiz. Yozgi dam olish bolalar uchun yangi mahoratlarini egallash, ijodiy o'sish, sport bilan shug'ullanish uchun ayni muddadidir.

Chust tumanining barcha 72 ta mahallasi va 77 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida faol ishlar olib borilmoqda. Mahalla yoshlar yetakchilari, maktab jamoalari, tuman yoshlar ishlari bo'limi, tuman madaniyati bo'limi va maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi bilan ham-

korlikda quyidagilar yo'lga qo'yilgan:

- 17 ta ko'rik-tanlov;
- 19 ta sport musobaqasi;
- 54 ta madaniy-ma'rifiy tadbir;
- 3 oy davomida tarixiy obidalar, muzeylar va turizm obyektlariga sayohatlar;
- har hafta yangi yo'nalish: sport haftaligi, “Zakovat” o'yinlari, kitobxonlik tanlovlari, kibersport musobaqalari.

Mazkur tadbirlar orqali 1000 nafarga yaqin o'quvchi va yoshlarni qamrab olish rejalashtirilgan. Bu esa ularning vaqtini mazmunli tashkil etish, turli ko'rinishdagi jinoyatchilik va salbiy illatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan har bir loyiha va tashabbus zamirida yoshlarning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy salohiyatini ro'yobga

chiqarish maqsadi yotadi. “Dolzarb 90 kun” yozgi dam olishni maroqli o'tkazish orqali har bir bola va yoshning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim tashabbusdir.

Bu tadbirlarda yoshlar yetakchilari ham faol ishtirok etyapti. Ular o'z hududida uyushmagan yoshlarni aniqlash, ularni to'garaklarga jalb qilish, har bir yoshga individual yondashish orqali jarayonning sifatli va samarali kechishini ta'minlamogda.

Otabek QOBILOV,

Chust tumanidagi Tinchlik mahallasi
yoshlar yetakchisi



Shamsiya SHARIPOVA,
TDYU ARM yetakchi mutaxassisi,
Zilola TOLIPOVA,
TDYU ARM II toifali kutubxonachisi


YOSH



TADBIRKORLAR UCHUN IMKONIYAT!

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan bo'lib o'tadigan navbatdagi ochiq muloqoti oldidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyatini qo'ldan boy bermang.

Takliflaringizni 1094 va 1100 qisqa raqamlari yoki “Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot” (https://my.chamber.uz/ochiq_muloqot/oz) elektron platformasi orqali yozib qoldirishingiz mumkin.



KUTUBXONADAGI O'ZINI VOLONTYORLIK OQLADI

Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi axborot-resurs markazlari (ARM) nafaqat bilim olish maskani, balki talabalar uchun ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy rivojlantirish maydoniga aylanmoqda. Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi shunday ijtimoiy-ma'naviy makon. Markazda yo'lga qo'yilgan volontyorlik faoliyati talabalar hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Volontyorlik orqali talabalar bilim va ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish, o'zini namoyon etish, jamiyattagi o'rnini anglash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. 2024-2025-o'quv yilida Toshkent davlat yuridik universiteti ARMda volontyorlik asosida faoliyat olib borgan 6 nafar talaba bilan o'tkazilgan intervyular ushbu faoliyat nafaqat ularning kasbiy ko'nikmalarini oshirganini, balki shaxsiy rivojlanishiga ham katta turtki bo'lganini ko'rsatdi.

Volontyorlik faoliyati davomida talabalar quyidagi yo'nalishlarda ishtirok etdi:

- foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish;
- elektron kutubxona bilan ishlash;
- kitoblar katalogini yuritish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;
- ilmiy tahlil va psixologik jihatlar.

Ishtirokchilar fikrlari asosida asosiy mavzular ajratib olindi.

Ijtimoiy faollik va muloqot madaniyati. Talabalar xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanuvchilar bilan professional muloqot

qilishni o'rgandi, bu ularda jamoada ishlash qobiliyati, muammolarni hal qilish, liderlik va muomala madaniyati kabi ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni mustahkamladi.

Kasbiy yo'nalishdagi aniqlik. Ba'zi talabalar volontyorlik davomida kutubxonashunoslik, huquqiy axborot resursologiyalari, filologiya kabi yo'nalishlarga qiziqish bildirganini qayd etdi. Bu esa volontyorlik faoliyatining kasb tanlashda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Shaxsiy o'zgarishlar. Talabalarda o'ziga ishonch ortgan, vaqtni to'g'ri boshqarish, stressga chidamlilik, mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim shaxsiy fazilatlar rivojlangan. Bu volontyorlikni nafaqat tashqi faoliyat, balki ichki o'zgarishlar vositasi sifatida ham qadrlashga asos bo'ldi.

ARM faoliyatiga ta'sir. Volontyorlar tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan “Zakovat” intellektual o'yinlari, “Kitob haftaliklari” va yangi foydalanuvchilar uchun tashkil etilgan yo'l-yo'riq mashg'ulotlari ARM xizmatlari sifatini oshirdi hamda talabalar va foydalanuvchilarning markazga qiziqishini yanada kuchaytirdi.

Volontyorlik faoliyati nafaqat talabaga, balki ARM tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

rasmilashlantirish va reytingga kiritish – volontyorlik faoliyatini universitet miqyosida e'tirof etish va bu faoliyatni talabalar reytingiga ta'sir qiluvchi mezon sifatida belgilash;

rag'batlantirish – faol volontyorlar uchun tavsiyanomalar, maxsus stipendiyalar va amaliyotlar taqdim etish;

treninglar o'tkazish – volontyorlarga kutubxonachilik, xizmat ko'rsatish va IT texnologiyalari bo'yicha qisqa o'quv kurslari tashkil qilish;

monitoring va tahlil – volontyorlar faoliyatining samaradorligini baholab borish va ilg'or tajribalarni ommlashtirish.

Volontyorlik faoliyati yoshlarning ijtimoiy faolligi, kasbiy va shaxsiy rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda. ARMdagi volontyorlik faoliyati esa bir necha sahifali kitoblar emas, hayotning o'zidan o'rgatuvchi darslikdir. Bu darslik har bir talabaga ochiq.

“Yoshlarni eshitamiz”



OCHIQ MULOQOTLAR BOSHLANMOQDA!



O'zbekistonda 20 milliondan ortiq yosh bor. Bu mamlakat kelajagini belgilovchi ulkan kuch demakdir.

Joriy yil iyul oyidan dekabr oyiga qadar turli yo'nalishlarda yoshlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Muloqotlarda har bir yo'nalish bo'yicha mas'ul rahbarlar yoshlar bilan bevosita uchrashib, ularning takliflari, g'oya va muammolarini o'rganadi.

Ilk uchrashuv 24-iyul kuni poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida yosh tadbirkorlar va xodimlarining asosiy qismini yoshlar tashkil etuvchi tashkilotlar mas'ullari bilan bo'lib o'tadi.

Murojaat va takliflaringizni [@yoshlarmurojaati_bot](#) orqali jo'natishingiz ham mumkin!

Aziz yoshlar! Taklif va tashabbuslaringiz bormi? Unda muloqotlarda qatnashing, bu – siz uchun imkoniyatlar maydoni!

MAHALLAGA



Xursandoy JUMANAZAROVA

Namangan viloyatining Yangiyo'rg'on tumanidagi Mo'g'ol mahallasi yoshlar yetakchisi

FAQAT DO'STLIK VA HAMJIHATLIK BOR

– O'zbek va qirg'iz xalqi azaldan bir tuproqda yashab kelgan qardoshlar, – deydi Xursandoy Jumanazarova. – Bu nafaqat tarix, balki haqiqiy haqiqat. Mahalla yoshlariga qarasam, ular orasida millat degan to'siq yo'q – faqat hurmat, do'stlik va hamjihatlik bor.

Xursandoy faoliyatining ilk kunidan mahalladagi har bir yoshning hayotiy sharoitini, ijtimoiy ahvolini chuqur o'rganishga kirishdi. U “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” va “Temir daftar”da ro'yxatga olingan fuqarolarning oilaviy, moddiy va psixologik holatini tahlil qilib, ularni manzilli qo'llab-quvvatlashni maqsad qildi.

Bugungi kunda mahallada har bir yosh bilan individual ishlash tizimi joriy etilgan. Xursandoy Jumanazarova, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish bilan band bo'lmagan, nogiron, yetim yoki yarim yetim, chekka hududda yashayotgan, hayotga nisbatan ishonchini yo'qotgan yoki jinoyatchilik yoqasiga kelib qolgan yoshlar bilan alohida ishlaydi.

MO'G'OL MAHALLASI BALANSI:

Aholi soni:
1704 nafar;
Yoshlar soni:
465 nafar;
Ayol-qizlar:
207 nafar.

HAMMA E'TIBORDA

Mahallada “Yoshlar balans” tizimi asosida har bir yoshning holati tahlil qilinmoqda. 6 nafar yosh “Yoshlar daftari”ga kiritilib, ular bilan manzilli ish olib borildi. Jumladan, 1 nafar yosh doimiy ish bilan ta'minlandi, 5 nafariga subsidiya asosida mehnat qurollari ajratilib, o'zini o'zi band qilishiga imkon yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-153-sonli qaroriga asosan 2 nafar yoshga 1,8 gektar yer maydoni ajratildi. Yana 2 nafar yoshga 60 million so'm imtiyozli kredit olib berildi. 2 nafar oliy ta'lim bitiruvchisi doimiy ish o'rniga joylashtirildi.

IJTIMOY HIMOYA – KO'NGILDAN

2024-yilda surunkali kasallikka chalinigan 8 nafar yoshga tibbiy yordam ko'rsatildi. Ulardan 4 nafari sog'lig'i tiklangach kasb-hunar o'rganish kurslariga jalb etildi, qolgan 4 nafari esa davolanishni davom ettirmoqda.

Otasi vafot etgan, onasi ishsiz, og'ir moddiy ahvolda hayot kechirayotgan qizga Xursandoy Jumanazarova pasport rasmiylashtirishda amaliy yordam ko'rsatdi. Yana 2 nafar yoshga haydovchilik kursida o'qishi uchun zarur xarajatlar to'lab berildi.

Boquvchisini yo'qotgan, og'ir ijtimoiy sharoitda yashayotgan 2 nafar yoshga homiylik mablag'lari hisobidan moddiy yordam ajratildi. Ular vaqtincha kunlik ishlarga jalb etilib, hozir oilasiga daromad keltirmoqda.

“Yashil” toifa: 303 nafar	“Sariq” toifa: 162 nafar	“Qizil” toifa: 7 nafar
Mahalla drayveri: dehqonchilik va chorvachilik.		

BIR YURAK – BIR ORZU

Mo'g'ol mahallasining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, bu yerda o'zbek va qirg'iz elatlari azaldan ahil va inoq hayot kechirdi. Millatlararo totuvlik, madaniy xilma-xillik va o'zaro hurmat yoshlarda ham uyg'unlikda namoyon bo'lmoqda. Yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan “Bir yurak – bir orzu”, “Biz bir oilamiz” kabi 20 dan ortiq madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Ushbu tadbirlarda ikki xalq vakili bo'lgan yoshlar faol ishtirok etib, kuy-qo'shiqlar, raqslar, teatr sahnalari orqali millatlararo birlik va do'stlikni targ'ib qildi.

Shuningdek, “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida 51 nafar yosh ro'yxatga olinib, ulardan 45 nafari sertifikatga ega bo'ldi. “Mutolaa” loyihasida 52 nafar yosh kitoblar o'qimoqda. “Ustoz AI” loyihasida esa 24 nafar yosh ro'yxatdan o'tgan. “Uzchess” loyihasiga 45 nafar, “Qizlar akademiyasi”ga 58 nafar yosh faol qamrab olindi.

Yoshlar yetakchisining shaxsiy tashabbusi bilan mahalla hududida homiylik mablag'lari asosida zamonaviy bolalar maydonchasi barpo etildi.



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

MAHALLADAN RESPUBLIKAGACHA

Xursandoy Jumanazarova 2025-yilning birinchi yarmida 7 nafar “qizil” toifadagi yosh bilan individual reabilitatsiya ishlari olib bordi. Ular turli o'quv kurslariga jalb etildi, psixologik maslahatlar berildi, shuningdek, ayrim yoshlarga vaqtincha-lik ish topishda amaliy yordam ko'rsatildi. Bu ishlar yoshlarning hayotga ishonchini tiklash, sog'lom turmush tarziga qaytarish va ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Yoshlar ovozi” festivali, “Lider yosh”, “Kitobxon yoshlar haftaligi”, “Yoshlar – kelajak bunyodkori” kabi loyihalar orqali mahalla yoshlari o'z sa-lohiyatini namoyon etish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Bu ishlarning amaliy samarasini 2024-yilda o'tkazilgan “Besh tashabbus olimpiadasi” misolida ko'rish mumkin. Unda Mo'g'ol mahallasi yoshlari voleybol sport turi bo'yicha tuman va viloyat bosqichlarida faxrli 1-o'rinni egallab, respublika bosqichida ham faol ishtirok etdi.

“

“IBRAT FARZANDLARI” LOYIHASI
DOIRASIDA 51 NAFAR YOSH
RO'YXATGA OLINIB, ULARDAN 45
NAFARI SERTIFIKATGA EGA BO'LDI.

KELAJAK REJALARI ANIQ

Xursandoy Jumanazarovanning yoshlar bilan ishlash borasidagi yondashuvi nafaqat muammolarni hal qilish, balki ularni ildizi bilan yo'qotishga qaratilgan. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj, og'ir sharoitda yashayotgan yoshlar bilan ishlashda u kelajak uchun aniq va manzilli rejalarni belgilab olgan.

Birinchidan, mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj yigit-qizlar doimiy monitoring asosida o'rganiladi. Xursandoyning tashabbusi bilan ularning holatini aks ettiruvchi individual reabilitatsiya kartalari yuritilishi, muammolarni eerta aniqlash va hal etish tizimini joriy qilish rejalashtirilgan.

Ikkinchidan, yoshlarning kasbli bo'lishi – mustaqil hayot sari ishonchli qadam, degan yondashuv asosida har bir ishsiz yoki kasb-hunarga ega bo'lmagan yigit-qizga ustoz-shogird tizimi, kasb o'rgatuvchi o'quv kurslari, subsidiya asosida texnik qilozlar ajratilishi orqali o'zini o'zi band qilish imkoniyati yaratiladi. Shu maqsadda mehnat yarmakalari va tadbirkorlar bilan aloqalar mustahkamlanmoqda. Natijada barcha yoshlar bandligini ta'minlashga erishish mumkin.

Uchinchidan, og'ir ijtimoiy ahvoldagi yoshlarga ko'mak ko'rsatishda faqat davlat emas, balki butun mahalla jipslashishi zarur, degan tamoyil asosida u homiylar, xayriya tashkilotlari, ta'lim muassasalari va fuqarolar bilan hamkorlikda barqaror yordam tarmog'ini shakllantirishni maqsad qilgan. Bu yondashuvlar “birota ham yosh e'tibordan chetda qolmasin” degan insonparvar g'oyaga tayanadi.

Xursandoy Jumanazarovanning sa'y-harakatlari tufayli Mo'g'ol mahallasida yoshlarga oid davlat siyosati samarali amalga oshirilmoqda. U yetakchi emas, mehribon opa, do'st, maslahatgo'ydek faoliyat olib borayotgan inson sifatida e'tirof etiladi. Xursandoy aytgandek:

“Yoshlar baxtli bo'lsa jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam bo'lsa kelajak portloq bo'ladi.”



Moliyaviy savodxonlik

Isomiddin QURBONOV,
Toshkent viloyati sudining sudyasi,
Eldor QURBONOV,
Quyichirchiq tumanlararo
iqtisodiy sudining sudyasi

Mamlakatimizda kredit munosabatlari kirib bormagan xonadon mavjud emas. Ayniqsa, endigina tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan va o'zining maqsadli biznes rejasiga ega yoshlar uchun kredit qulay imkoniyat hisoblanadi.

Kredit beruvchi tashkilot (odatda bank) kredit majburiyatining bajarilishi – ta'minotni talab qiladi. Aksariyat hollarda likvidli mol-mulk zarur bo'ladi. Kredit olishni maqsad qilgan shaxsda ta'minot uchun yetarli mol-mulki mavjud bo'lmasa, kelishuvga asosan o'ziga yaqin do'st-birodaridan yordam so'rab, unga tegishli mol-mulkn kredit ta'minoti sifatida rasmiylashtirishi mumkin. Bunday holatlar kundalik hayotimizda juda ko'p uchraydi.

Garov to'g'risidagi qonunga ko'ra, bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkn yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarini ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

Zakalat, ipoteka, shuningdek, huquq garovi amaldagi qonunimizda garov turlari sifatida belgilangan.

Tartibga ko'ra, qarzdor (garovga qo'yuvchi) kredit majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratlarda qanoatlantirilishiga, qonunda nazarda tutilgan tartibda haqli bo'ladi.

Qonun bo'yicha haqiqiy bo'lgan har qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday subyektlari (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy valyutada yoki chet el valyutasida) ifodalangan bo'lishi lozim.

Tadbirkor o'ziga tegishli mol-mulkn boshqa shaxsning kredit ta'minoti uchun garovga qo'yish jarayonida buning oqibatlarini anglashi lozim. Garov huquqi garov to'g'risida shartnoma tuzilgan paytdan yoxud basharti shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo'lsa, notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lganida esa u ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Garov shartnomasi rasmiylashtirilayotganda shartnoma shartlari bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Qonun talabi bo'yicha boshqa shaxsning kredit ta'minoti uchun o'z mol-mulknini kelishuv asosida garovga taqdim etgan shaxs kelajakda o'zga shaxs o'z kredit majburiyatini bajara olmay qolganida kredit mablag'ini undirish garov ta'minotiga qaratiladi.

“
GAROV
SHARTNOMASI RASMIYLASHTIRILAYOTGANDA
SHARTNOMA SHARTLARI
BILAN TANISHIB
CHIQUISH TAVSIYA
ETILADI.

2025-yilning o'tgan davrida Quyichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudida tijorat banklarining kredit bilan bog'liq 112 ta da'volari ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning aksariyatida to'lanmagan kredit qarzdorligini garov ta'minotiga qaratish so'ralgan.

Jumladan, bir holatda aksiyadorlik tijorat banki sudga da'vo arizasi kiritib, javobgar shaxsdan qariyb 80 000 AQSh dollari miqdorida kreditning foiz qarzdorligini undirish va undiruvni garov mol-mulklariga qaratishni so'ragan. Javobgarning kredit ta'minoti sifatida o'zining 2 ta turdagi ko'chmas mol-mulki hamda yetarlicha ta'minoti bo'lmagani uchun boshqa yosh tadbirkorga tegishli issiqxona bino inshootlari (tadbirkorning roziligi bilan) garovga qo'yilgan.

Sud muhokamasida javobgar MChJ kredit mablag'i foizini to'lashning imkoniyati mavjud emasligini ma'lum qilgan. Natijada Quyichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining qarori bilan 80 000 AQSh dollari miqdorida kreditning foiz qarzdorligini undirish va undiruvni barcha garov mulklari (qarzdor MChJning 2 ta ko'chmas mulki va yosh tadbirkorning issiqxona bino inshootiga) qarash yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilingan.

Sudda yosh tadbirkor o'zining tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish niyatida ekanligini, hozir iqtisodiy jihatdan yaxshi holatga kelganini va ayni garovga qo'yilgan bino inshootda issiqxona xo'jaligi faoliyatini olib borayotganini, do'sti – qarzdor MChJning qarzdorligini undirish uning mol-mulklariga qaratilsa, tadbirkorlik faoliyati o'z nihoyasiga yetishi mumkinligini bayon qilgan.

Biroq sud bunday holatda garov shartnomasi bo'yicha kreditning bajarilmay qolgan majburiyati yuzasidan o'zga shaxsga tegishli hamda qonun talablari asosida rasmiylashtirilgan garov (ipoteka) shartnomasi bo'yicha undiruvni rad etishiga asoslar mavjud emas.

Bunday amaliy misollarni ko'plab keltirish (ipoteka) shartnomalarining huquqiy oqibatlarini tushunib-tushunmay tanishiga yaxshilik qilish maqsadida o'z biznesini xohlamagan holda to'xtatishga majbur bo'lib qoladi.

Amalda garov (ipoteka) shartnomalarini rasmiylashtirish qonunlar bilan tartibga solingan. Kredit tashkiloti bilan garov munosabatiga kirishishdan oldin, qonun hujjatlari bilan mukammal tanishib chiqish, uning oqibatlarini tushunib yetish va shundan keyingina so'ralgan yordamni ko'rsatish tavsiya etiladi.

IQTIDORLILAR TAQQDIRLANDI

BUXORODA ENG NUFUZLI XALQARO FAN OLIMPIADALARI, RESPUBLIKA TANLOVLARI G'OLIBLARI HAMDA ULARNING USTOZLARINI TANTANALI TAQQDIRLASH MAROSIMI BO'LIB O'TDI.

Tadbirida so'zga chiqqan viloyat hokimi Botir Zaripov o'z bilim va iqtidori bilan jahon miqyosidagi eng nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida, respublika tanlovlari-da tengdoshlari bilan raqobatga kirishayotgan, sovrinli o'rinnlarni egallab oltin, kumush, bronza medallarni olib kelayotgan, iqtidori va san'atini namoyon etayotgan buxorolik yoshlar safi kengayib borayotganini faxr bilan qayd etdi.

Maktablarda teatr studiyalari tashkil etilib, musiqa va san'at sohasida iqtidorli o'quvchi-yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan “Turon” maktab teatri, joriy yildan boshlab “Iqtidor” maktab ansambli” tanlovlari yo'lga qo'yildi.

Buxoro viloyatida 26 ming nafarga yaqin o'quvchi-yoshlar bu tanlovlar orqali musiqa va san'at sohasida o'z iqtidorlarini namoyon etib, shahar va tumanlarda, qolaversa, barcha maktablarda iqtidorli o'quvchilar jamoalari shakllandi.

Mazkur tanlovlarning respublika bosqichida “Iqtidor” maktab ansambli” tanlovi bo'yicha G'ijduvon tumanidagi 46-maktabning “Yosh

havaskorlar” jamoasi 1-o'rinni, “Turon” maktab teatri” tanlovi bo'yicha Kogon shahridagi 3-maktabning “Elegant” jamoasi 3-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, “Yosh qutqaruvchi” musobaqasi bo'yicha Buxoro shahridagi 19-maktab jamoasi 1-o'rinni egallab, xorij safarida bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Jahon maydonlarida muvaffaqiyat qozonib, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarayotgan buxorolik o'quvchilar safi ham kengayib bormoqda.

Yakunlangan o'quv yilida 37 nafar o'quvchi respublika va xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Jumladan, respublika fan olimpiadalarida 8 ta sovrinli o'rin (3 ta 1-o'rin, 3 ta 3-o'rin, 2 ta 3-o'rin) qayd etilgan bo'lsa, xalqaro fan olimpiadalarida 29 ta (2 ta oltin, 17 ta kumush, 10 ta bronza) medallar qo'lga kiritildi.

Tadbirida g'olib va sovrindor o'quvchilar, ularning ustozlari viloyat hokimligining tashakkurnomasi, faxriy yorliq va qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Zarif KOMILOV, O'ZA muxbiri





SUN'IY YORUG'LIK XAVFI

Yorug'lik ifloslanishi inson yaratgan sun'iy yorug'likning atrof-muhitga haddan ziyod va nazoratsiz tarqalishi oqibatida tabiiy tungi sharoitning buzilishidir. Qorong'ilik tabiat muvozanati, inson sog'lig'i va hayotning chuqur sikli uchun zarur. Bugun biz unga qarshi kurashyapmiz. Ko'chalardagi haddan tashqari yorug'lik, tungi reklama, 24 soat yoritilgan do'konlar – bularning bari yorug'lik ifloslanishining zanjiri.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

yoxud TUNGA HAM DAM BERAYLIK

Shahruxa SATTOROVA

QORONG'ILIKNI YO'QOTISH OQIBATLARI

Yorug'lik ifloslanishi inson salomatligiga asta-sekin, lekin izchil ravishda ta'sir etuvchi zamonaviy xavflardan biri. U faqatgina qulaylik uchun o'rnatilgan ko'cha chiroqlari, reklama va binolar tashqi yoritqichlari orqali emas, insoniyatning tabiiy ritmi-ga bevosita aralashgan sun'iy muhit orqali namoyon bo'ladi.

Inson organizmidagi sirkad ritmlar kun-tunning tabiiy almashinuvi asosida ishlaydi. Jarayon miyadagi gipotalamus orqali boshqariladi va uyqu-uyg'onish, metabolizm, immun tizimi, gormonal balansga javob beradi. Qorong'ilikda miya epifiz bezi melatonin gormonini ishlab chiqaradi. Bu gormon nafaqat uyqu, balki hayjaya tiklanishi, antioksidant himoya va stressga chidamlilikda ham muhim rol o'ynaydi.

Sun'iy yorug'lik ta'sirida:

- melatonin ishlab chiqarilishi 50-80 foizgacha kamayadi;
- uyqu fazalari buziladi: inson chuqur uyquga tusholmaydi yoki erta uyg'onadi;
- ortiqcha charchoq, diqqat susayishi va kayfiyat o'zgarishi kelib chiqadi.

Bir necha yil yorug'lik ifloslanishidan aziyat chekkan insonlar salomatligida qator xavflar paydo bo'ladi.

Yurak-qon tomir xastaliklari: Harvard Medical Schoolning 2017-yildagi tadqiqotiga ko'ra, tungi yorug'lik darajasi yuqori bo'lgan shaharlarda infarkt 11 foiz ko'p qayd etilgan.

Onkologik kasalliklar: melatonin ozligi tufayli ko'krak bezi va prostata saratoni rivojlanishi ilmiy isbotlangan.

Immunitet zaifligi: melatonin immun hujayralarini faollashtiradi, uning kamligi infeksiyalarga chidamsiz qiladi.

Metabolik sindrom va semizlik: yorug'lik ta'sirida metabolik balansga javob beradigan insulin va leptin gormonlari faoliyati izdan chiqadi.

SIRKADIAL RITM BUZILISHI

Inson yaratgan sun'iy yorug'lik muhiti biologik jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hasharotlar, qushlar va boshqa tungi jonzotlar tabiiy ritmidan chetga chiqadi. Ular uchun tundagi yorug'lik tabiiy himoya va ovqatlanish faoliyatini buzadi, natijada ekotizimda muvozanat yo'qoladi. Qushlar migratsiyasida kechikishlar, hasharotlar sonining kamayishi yoki ortishi kabilar yashash muhitining buzilishiga olib keladi.

Aslida ekotizimlar o'zaro bog'liq murakkab tarmoq bo'lib, uning muvozanati ko'p hollarda yorug'lik va qorong'ilik sikliga, ya'ni sirkadial ritmlarga bog'liq. Sun'iy yorug'lik ushbu ritmlarni buzib, biologik, fiziologik va ekologik muammolarni yuzaga keltiradi.

Sirkadial ritmning buzilishi

Ko'pchilik jonzotlar (odamlar ham) 24 soatlik biologik soat asosida yashaydi. Bu "soat" tun va kunduzdagi yorug'lik farqiga asoslanadi. Sun'iy yorug'lik bu farqni yo'qqa chiqaradi va quyidagi xavflarni yuzaga keltiradi:

- stres gormonlar ortishi;
- uyqu, ovqatlanish, ko'payish, migratsiya kabi hayot yo'llari izdan chiqishi;
- hayot uchun xavfli vaqtda hayvonlar va qushlar harakat qilishi, ya'ni ularning yirtqichlarga nisbatan himoyasiz qilishi...

Qushlar va migratsion turlar

Ko'chmanchi qushlar yulduzlar va oy holatiga qarab yo'l topadi. Sky-



glow (osmon yoritilishi) ularning yo'nalishini yo'qotadi. 2017-yilgi Cornell Lab of Ornithology tadqiqotlariga ko'ra, yoritilgan binolarga urilib halok bo'ladigan qushlar soni har yili AQSh-da 100 milliondan oshadi.

O'zbekiston orqali o'tadigan migratsion yo'llar (masalan, Orolbo'yi hududlari) ham bunday xavf ostida qolishi mumkin.

Hasharotlar va changlatish tizimi

Kechqurun faollashadigan hasharotlar (kapalaklar, chigirtka, mayda parranda) chiroqlarga urilishi natijasida haddan ortiq energiya sarflab, nobud bo'ladi. Bu jarayon changlatish zanjirini buzadi, o'simliklar vegetatsiyasi buziladi, bu esa butun oziq-ovqat zanjiriga ta'sir qiladi.

2021-yilgi "Nature Ecology & Evolution" jurnalida chop etilgan maqolada tungi yoritish hasharotlar populyatsiyasini 60 foizgacha kamaytirgani keltirilgan.

O'simliklar hayot siklida buzilish

Ba'zi daraxt va o'simliklar fotoperiodizm asosida gullaydi, ya'ni kunning uzunligiga qarab. Sun'iy yorug'lik bu jarayonni chalgitadi: erta gullash, mevasiz qolish... Bu, ayniqsa, shaharlarda ekiladigan dekorativ yoki mevali daraxtlar uchun muhim.

QORONG'IOSMON HUDUDLARI

Qator davlatlarda qorong'i osmon hududlari ham tashkil etilmoqda. Bu hududlar yorug'lik ifloslanishini kamaytirish va tungi osmonning tabiiy holatini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Insonlar tabiiy tungi muhitda dam olib, stress darajasi-ni kamaytirish va salomatligini yaxshilash imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ham qorong'i osmon hududlarini yaratish yorug'lik ifloslanishining salbiy oqibatlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizdagi tog'li hududlar, Buxoro, Xorazm, Samarqand kabi turistik hududlar tabiiy yorug'likni saqlab qolish uchun qulay.

SEUL SHAHRIDA "AQLLI YORITISH" PILOT LOYIHASI JORIY ETILDI. UNDA HARA-KAT SEZGICH-LI LAMPALAR VA OB-HAVO SHAROITLARIGA MOSLANUVCHI YORITKICHLAR ISHLATILADI.

QONUNCHILIK VA TAVSIYALAR

Dunyo tajribasi ko'rsatadiki, yorug'lik ifloslanishiga qarshi kurashishda huquqiy cheklavlar, innovatsion texnologiyalar, ijtimoiy ongni oshirish va ekologik turizmni rivojlantirish kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Afsuski, mamlakatimizda yorug'lik ifloslanishiga kam e'tibor berilgan, bu sohada aniq standartlar va monitoring tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Qonunchilik bazasini mustahkamlash. Yorug'lik ifloslanishiga oid aniq standart va me'yorlar joriy etilishi zarur. Ko'chalar, shaharlar va sanoat obyektlarida yoritishning soatlari, qulayliklari va tiplarini aniq belgilash.

Texnologiyalarni joriy etish. Shaharlarda energiya tejamkor LED lampalarga o'tish. Aqlli yoritish tizimlarini (masalan, harakat sensorlari, vaqtda bog'liq yoritish) joriy qilish.

Qishloq joylarda ham tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqish.

Ijtimoiy ongni oshirish. Yorug'lik ifloslanishining salbiy ta'siri haqida jamoatchilikka keng axborot berish, ma'tabalar va oliy o'quv yurtlarida ekologiya darslari tashkil qilish.

Qorong'i osmon hududlarini saqlash. Tabiiy va tarixiy qimmatga ega hududlarda "qorong'i osmon zonalarini"ni belgilash va ularni himoya qilish. Bu hududlarda sun'iy yorug'likni minimallashtirish uchun maxsus qoidalar joriy etish.

Umuman olganda, yorug'lik ifloslanishi bu nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy muammo hamdir. Tabiiy qorong'ilik esa faqat tungi go'zallik emas, u ekotizimlar, biologik xilma-xillik va barqaror hayot uchun zarur element hisoblanadi. Uni himoya qilish – har bir inson, har bir shahar va har bir davlatning ekologik vazifasi.

TIL BILIMI

O'SIMLIK-LAR VEGITATSIYASI BUZILADI, BU ESA BUTUN OZIQ-OVQAT ZANJIRIGA TA'SIR QILADI.

Minnatdorchilikmi yo minnatdorlik?

Kitoblar, gazeta-jurnallar, saytlarda turlicha yoziladigan, mutaxassislar orasida bahs-munozaraga sabab bo'ladigan so'zlar juftligining yana biri: minnatdorchilik va minnatdorlik.

Xo'sh, qay biri to'g'ri? -chilik qo'shimchasi faqat ish-faoliyat, sohaga oid so'z yasaydi deb o'ylash xato. Bu qo'shimcha asosdan deb tushilgan narsa-hodisa, belgiga xos holatni bildiruvchi ot ham yasaydi: ma'mur-chilik, to'kinchilik, arzonchilik, pishiqchilik, qurg'oqchilik, qiyninchilik. Tilshunos Azim Hojiyev -lik va -chilik qo'shimchalaridagi ma'no farqlarini quyidagicha ko'rsatadi: Masalan, mehribonlik — mehribon sifatidan yasalgan belgi oti, ya'ni

mehribonga xos his-tuyg'u, mehribonchilik esa shunday his-tuyg'uning ifodasi bo'lgan holat, shunday his-tuyg'uli munosabat ma'nosini bildiradi.

Xuddi shu asosga tayansak, minnatdorlik – his-tuyg'u, minnatdorchilik esa shu his-tuyg'u bilan bildirilgan munosabat deb tushunish mumkin.

Qiyoslang: Uning ko'nglida minnatdorlik hislari jo'sh urdi.

To'g'risi, bunday minnatdorchilikni kutmagan edim.

Demak, minnatdorlik shaklini ham, minnatdorchilik shaklini ham qo'llayverish kerak. Ko'p hollarda ularni bir-birining o'rnida ishlatsa bo'ladi.

Oltin va oltun so'zlari haqida

Oltin so'zi eski o'zbek tilidagi manbalarda oltun shaklida uchraydi. Lekin Oltin O'rda so'zi Oltun O'rda emas, hamisha Oltin O'rda tarzida yozib kelingan. Bugun biz bu ikki so'zni bir xil — tilla, zar, qimmatbaho metall ma'nolarida tushunsak-da, ular o'rtasida yetarli darajada farq bor.

"O'zbek adabiy tili tarixi" (Toshkent, 1995 yil) kitobida aytilishicha, oltin so'zi asli oltun bo'lib, u eski o'zbek tilidagi ol – qizil va xitoycha tun – mis so'zlaridan tarkib topgan. Ya'ni oltun – qizil mis deganidir. Hozirgi Xorazm shevasidagi tuncha so'zining o'zagi tun, ya'ni mis bo'lib, misdan yasalgan choy idish, choy qaynatadigan qumg'on degan ma'noni anglatadi.

Endi Oltin O'rdaning nega Oltun O'rda emasligiga keladigan bo'lsak, bu so'z sof o'zbekcha bo'lib, uning tarkibidagi oltin – oldingi, pastki, quyidagi, pasttekislikdagi degan ma'nolarni bildirgan. Onado'li turkchasida Alt so'zi bugun ham ost, tag ma'nosida ishlatiladi. Masalan, ertalabki nonushtani turk birodarlarimiz kahvalt (qahva tagi) deyishadi. Yasalishi shunday: qahva + tag, ost, qahva osti, qahva tagida qoladigan narsa, yegulik.

Oltin va oltun paronim so'zlar bo'lgani, oltin, ya'ni tillaning ko'chma ma'noda ham eng yuqori, eng yaxshi narsa va tushunchalarga nisbatan qo'llanishini hisobga olsak, uning O'rdani sifatlab kelgan so'z sifatida o'rischaga "zolatoya orda" tarzida tarjima qilinishini to'g'ri tushunish mumkin.

"Ittifoqo" nima degani?

Asosan badiiy uslubda ishlatiladi. Asli arabcha bo'lgan so'z kutilmaganda, tasodifan, to'satdan ma'nolarini anglatadi: Ittifoqo uchrashib qoldik. Ittifoqo bu masalaga e'tibor qaratdi. Bu so'zdan so'ng ko'pincha vergul qo'yishadi. Aslida vergul kerak emas.

Elmurod NISHONOV

OrifTOLIB

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis: O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi

Bosh hamkor: O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:

Hamza ABDULLAYEV

Mas'ul muharrir: Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Navbatchi muharrir: Shahobiddin LUQMON

Fotograf: Xolida MUSULMON

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatida chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turan ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-708, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

